

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA

Xalilova Zilola Farmonovna

NavDPI tayanch doktoranti

E-mail: zilolakhilova@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada frazeologizmlar, ularning ma’no tarkibi va leksikografik tavsifi hamda qayd qilingan frazeologizmlararo sinonimiya, antonimiya va variantdoshlik ikki til orasidagi yaqinlik, uyg‘unlik va farqlilik munosabati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, tilshunoslik, nutq, izoh, sinonim, antonim, chatishma, ekvivalent, erkin birikma.

ABSTRACT

The article talks about phraseologisms, their semantic structure and lexicographical description, as well as synonymy, antonymy and variant coexistence between the noted phraseologys and the relation of closeness and harmony between the two languages.

Keywords: phraseological unit, linguistics, discourse, explanation, synonym, antonym, conjunction, equivalent, free combination.

Frazeologizmlar - bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo‘lib, tildagi mavjud so‘z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko‘p aspektli til hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hanuzgacha munozaraligicha qolmoqda. Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o‘rnini o‘sha iboraning ma’nosiga to‘g‘ri keladigan so‘z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa, B. A. Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so‘zlarning ma’nosidan o‘sha birliklar umumiy ma’nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi. Frazeologizmlarning paydo bo‘lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Nemis frazeologiyasi boy va shu bilan birga uzoq tarixga ega. Bunda sof nemis tilidagi frazeologizmlar qatorida chet tilidan qabul qilingan, ya’ni internatsional frazeologizmlar ham mavjud. Frazeologizmlarga faqatgina tilning “bezagi” sifatida qarab bo‘lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o‘zi yo‘q, xususan nemis tili frazeologiyasi ham juda boy va o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Nemis tili lingvistikasida frazeologiya nazariyasiga oid bir

qator ilmiy ishlar mavjud. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sharl Balli phraseologiya atamasini “stilistikaning so‘z birikmalarini o‘rganuvchi bo‘limi” ma’nosida kiritdi, ammo mazkur atama G‘arbiy Yevropa lingvistlarning asarlarida boshqa uch ma’nolarda o‘z aksini topdi:

1. so‘z tanlash, ifoda shakli, ta’riflash;
2. til, bo‘g‘in, uslub;
3. ifoda, so‘z birikmasi.

Erkin birikkan so‘z birikmasi ma’lum fikrlarni ifodalash uchun har bir ma’lum nutq vaziyatlarining vazifasiga asosan tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy ma’nosi o‘sha birikmani tashkil etgan har bir so‘z mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibiga hokim so‘z va gapning mustaqil a’zosi vazifasini bajaradigan tobe so‘z kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma o‘zida sintaktik bog‘lanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bog‘lanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turg‘un birikmalarni hosil qiladi.

Barqaror so‘z birikmasi birikma tarkibidagi biror so‘zni birikma ma’nosini buzmasdan o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan qat’iy muayyan so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi. Barqaror birikma shaklan va muayyan ma’no jihatidan boshqa birikmalardan ajralib turadi, u an’anaviy qo‘llanishi va mazmun to‘laligining yuqori yoki quyi ekanligidan aniqlab olinadi. Turg‘un so‘z birikmasi nutq paytidagi so‘zlashuv jarayonida yaratilmaydi, lekin nutqda allaqachon qotib qolgan va ma’lum mazmunda ishlatilayotgan bo‘ladi. Barqaror so‘z birikmasining mazmunan to‘liq tarkibi gapning mustaqil bo‘lagini anglatmaydi, lekin barqaror birikma bir butunlikda gapning bir bo‘lagini barpo etadi, maqol bundan mustasno, chunki uning tuzilishi butun boshli gap bilan teng bo‘lishi mumkin.

1. Es ist noch kein Meister vom Himmel gefallen.- (Hech kim osmondan usta bo‘lib tushmaydi).

Hech kim onasidan gijinglagan otday serg‘ayrat, yerga ursa, ko‘kka sapchiydigan bo‘lib tug‘ilmaydi.

[Abdug‘afur Rasulov, filologiya fanlari doktori, O‘zMU professori “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 11-son, 1]

Erläuterungen

Niemand wird als Meister geboren. Fähigkeiten muss man sich erarbeiten.

Hech kim onasidan usta bo‘lib tug‘ilmaydi. Mehnat hatijasida erishiladi.

Man muss lernen und üben, bevor man etwas besonders gut kann. Es braucht Zeit und Geduld, um auf einem Gebiet meisterhaft zu werden.

Wenn etwas vom Himmel fällt, dann wird es einem geschenkt. Es ist ohne eigene Arbeit und Mühe zu erlangen. Meisterschaft fällt aber gerade nicht vom Himmel. Um auf einem Gebiet richtig gut zu werden, muss man kontinuierlich weiter lernen und sich bemühen. Das Sprichwort soll ermuntern und Mut machen, wenn etwas nicht auf Anhieb klappt.

Im Lateinischen heißt es *Nemo magister natus*. = Niemand ist als Meister auf die Welt gekommen. Eine andere Variante des Sprichworts besagt *Nemo nascitur artifex*. = Niemand wird als Künstler geboren. Beide sind unbekannter Herkunft.[Ражабов Н ,1977,2]

Was Du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen.
(Bugungi ishni ertaga qo'yma)

Etwas lieber sofort erledigen, als es auf später oder einen anderen Tag aufzuschieben

Barqaror birikmali so'zlar tilning frazeologik birikmalari deb ham yuritiladi. Frazeologik birikmalar ikki yoki undan ko'p so'zlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir so'zga ekvivalent bo'lishi mumkin, odatda u bir so'zli sinonimik ekvivalentga ega bo'ladi, sintaktik jihatdan gapning bir bo'lagini barpo etadi. Tuzilishiga ko'ra frazeologik birikmalar ulkan xilma-xillikni o'zida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi o'rtasidagi semantik bog'lanishlar turlicha bo'lishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so'z o'zining ma'no mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.

Erkin birikma – bu barqaror birikma, ya'ni birikma tarkibidagi so'zlarning har birida tobelik munosabati mavjud, bir oz ma'no mustaqilligi saqlangan birikma. Erkin birikmani tashkil etuvchi so'zlar ma'nosi frazeologik bog'lanishlarda tobelikni bildiradi, bundan tashqari har biri mazkur so'zlar bilan faqat birikmalarda ko'rsatiladi. Butun birikma ma'nosi uni tashkil etuvchi so'zlar ma'nosidan anglashiladi.

Nur Bahnhof verstehen. (faqat vokzalni tushunmoq)	Etwas / eine Aufgabe gar nicht verstehen. (Topshiriqni, vazifani umuman tushunmaslik)
--	--

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlagach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan. Masalan, M. D. Stepanova hamda I. I. Chernishyovalar frazeologizmlarning strukturaviy hamda semantik jihatdan tasniflagan. Teo Shippan ham frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko'rsatgan, ya'ni frazeologik butunlik va turg'un birikmalar. Yana bir tilshunos olim U. Fiks esa, frazeologizmlarni erkin gap bilan

taqqoslaganda, fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki mos kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlaydi. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o'rganishga urinishgan. Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish obyektiga ega. Frazeologiyani o'rganish obyekti o'z navbatida shunday murakkab va o'ziga xoski, uni o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi. Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan. Avvalombor, muhokamada tasniflash masalasi turadi. Frazeologizmlarda so'z yasalishidagidek struktur tiplari va yasalish elementlari (affiksalar) ning alohida sistemasi mavjud emas.

1. jm. in die Rede fallen (so'zga tushmoq, so'z olmoq, gapirmoq)	jm. ins Wort fallen
2. an der Reihe sein (qatorda bo'lmoq, keyingisi bo'lmoq)	der Nächste sein
3 den Faden verlieren (klavani yo'qotmoq)	das Thema verlieren
6. fix und fertig (tap-tayyor)	völlig erschöpft/ganz fertig
4. dicke Luft (qalin havo, xavfli ob-havoga nisbatan)	Gefahr
8. an die Luft gehen (havoda yurmoq, sayr qilmoq)	spazierengehen
9. in die Luft fliegen (havoga uchmoq)	explodieren
10. sich lustig machen über (quvonmoq)	mit Humor die Schwächen von etwas zeigen
11. mach dir nichts daraus (xafa bo'lmaslik)	ärgere dich nicht
12. von Mensch zu Mensch (insondan –insonga) (to'gridan –to'gri)	direkt
13. von Mann zu Mann (erkakdan –erkakga) (to'gridan –to'gri)	direkt
14. den Mund halten (og'izni tutmoq) (jim bo'lmoq, gapirmaslik)	still sein
15. von Mund zu Mund gehen (og'izdan og'izga)	sich schnell verbreiten
16. nach und nach (qadam baqadam)	allmählich
17. jm. zum Narren halten (kimnidir ahmoq deb hisoblamoq)	jm. verspotten
18. die Nerven verlieren (tinchligini yo'qotmoq)	die Ruhe verlieren
19. die Nerven behalten (tinchlikni asramoq)	die Ruhe bewahren
20. gute Nerven haben (asab joyida)	viel aushalten können
21. ganz Ohr sein (qulog' dik, diqqatli bo'lmoq)	aufmerksam zuhören
22. seine Papiere bekommen (qog'ozni olmoq, pattasini olmoq)	
23. an der Quelle sitzen (birinchi qo'l)	Waren/ Nachrichten aus erster Hand bekommen
24. frisch von der Quelle (birinchi qo'l)	aus erster Hand
25. am Rande des Grabes stehen (qabrning chetida, bir oyog'i go'rda, bir oyog'i yerda)	todkrank sein
26. im Recht sein (haq bo'lmoq)	recht haben

G'.Salomov o'zbek tilshunosligi uchun g'oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasi bilan maxsus shug'ullangan olimdir. Olimning ta'kidlashicha, "Maqol-xalq aql idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmuyi,

turmushdagi turli voqea hodisalarga munosabatining ifodasidir”. Frazologizmlarni o‘rganishda ularni o‘zbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o‘rganish ham maqsadga muvofiq ko‘rinadi. N.Turopovaning “Yapon va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish” nomli ilmiy maqolasida shunday fikrlar ilgari surilgan. Frazologik iboralar nutqning ta’sirchanligini, emotsional - ekspressivligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko‘rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan xorijiy til frazeologizmlarining xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har tillardagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, o‘xshashligiga hamda bir tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na variantiga egaligiga e’tiborni qaratish lozim. N.Turopova frazeologizmlarni quyidagicha guruhlariga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi.[Dilobar Abduxalilova, & Furkat Raxmatov, 2021.3]

1. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan ekvivalent frazeologizmlar. Ular mazmun, shakl, ekspressiv-stilistik xususiyatlarni saqlagan bo‘lishi lozim.

2. Har ikki tilda o‘zaro o‘xshash bo‘lgan frazeologizmlar. Ular mazmun jihatdan o‘xshash stilistik xususiyatlarni o‘zida saqlagan, lekin obrazli asosi turlicha bo‘lgan frazeologik variantlardir.

3. Mazmuni kontekst orqali aniqlanadigan, milliy urf-odatni ifodalovchi frazeologizmlar.

Frazologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga e’tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to‘g‘ri kelmay, fikriy g‘alizliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo‘lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e’tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so‘zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma’nosini, emotsional - ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur. Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Idioma - shaklan bo‘laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ri va konkret ma’nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko‘chma ma’no anglatuvchi barqaror so‘z birikmasidir. “Idioma” (yunoncha o‘ziga xos ifoda, ibora)- frazeologik chatishmadir⁷. Frazologik chatishma - ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmaydigan frazeologik birliklar⁸. Masalan, “oyoqni qo‘lga olmoq” (yugurmoq).

O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab o‘zbek frazeologiyasini o‘rganish ishi quyidagi ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi:

a) o‘zbek tili frazeologik birliklarining ayrim struktural tiplari maxsus o‘rganila boshladi;

b) frazeologik birliklarning badiiy uslubiy xususiyatlari o‘rganildi.

Frazeologik birliklarning ibora - tasvir vositalari tizimida turgan o‘rnini tadqiq qilish davom ettirildi. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha - frazeologiyaning ko‘pgina oziga xos muammolari o‘rganildi va o‘zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi.

Frazeologiya mustaqil fan bo‘lib shakllanishi va ajralib chiqqanidan buyon o‘tgan nisbatan qisqa vaqt ichida frazeologik birliklar turli jihatlaridan o‘rganildi. Frazeologik birliklarga morfologik nuqtayi nazaridan ham yondashiladi, ya‘ni ularning u yoki bu frazeologik grammatik turkumlarga mansubligi belgilanadi. Frazeologik birliklarning shakli bilan ma‘nosi orasidagi izomorfik (moslik,parallellik) darajasini aniqlash maqsad qilib qo‘yildi. Keyingi yillarda frazeologizmlar yuzasidan ko‘plab ilmiy monografik asarlar, ilmiy maqolalar nashr etildi. Shunday ishlardan biri B.Yo‘ldoshevning “Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir” nomli maqolasidir. Til jamiyatda eng muhim aloqa vositasi bo‘lishi, o‘z vazifalarini oqilona bajarishi uchun, avvalo, normalashgan bo‘lishi kerak, chunki normativlik xususiyati milliy adabiy tilning markaziy va eng muhim belgisidir. Mavzu so‘z gruppallari va gaplar haqida ketganligi tufayli so‘zlar uchun qo‘llanila oladigan tasniflash kriteriyalari frazeologizmlarda to‘liq ko‘chirilmaydi. Bu erda qandaydir tur klassifikatsiyasi haqida gap ketayotgani yo‘q, balki kamdan- kam uchraydigan hodisalar, ya‘ni frazeologizmlarning funksiyasi va mazmun- mohiyatidagi nuqtai- nazar, qarashlar, ularning turg‘unligi va boshqa til birliklari bilan o‘zgaruvchanlik aloqalarini ko‘rib chiqish haqida ketmoqda. Frazeologik konstruksiya mohiyatining xarakterlanish bilan aloqadorligi tasniflash kriteriyalari sifatida ko‘rib chiqilgan. Bir tomondan frazeologizmlardagi komponent sifatidagi qo‘llanilayotgan so‘zlarning ma‘nolari orasidagi ”noqonuniy” munosabat va boshqa tomondan esa, frazeologizmlarning mutlaqo aniq qo‘yilgan faktorlari, frazeologizmlarning ma‘nolari semantik klassifikatsiya kriteriyasini ko‘rsatadi. Lekin kelib chiqish darajasida alohida bo‘linishini, farqlanishni qamrab ololmaganligi tufayli, boshqa keyingi funksional va struktur kriteriyalarni ham o‘ziga yaqinlashtiradi. Mavzuni va predmetni aniqlash so‘z va so‘z yasalihi konstruksiyasi predmetini aniqlashdagi turli xil muammolarga qaraganda biroz qiyinroq. Mana shuning uchun hamma klassifikatsiya tajribalariga birinchi navbatda ana shu ta‘sir ko‘rsatadi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida tilda mavjud bo‘lgan so‘z komplekslarining aniq kombinatsiyalarining barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. N. Teliya ham muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko‘rinishini leksikologiya bilan yonma- yon mustaqil bo‘lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo‘limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning

yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so'zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb izoh berdi.

Frazeologiya fanini o'rganishning o'ziga xos ba'zi muammolari mavjud bo'lib, bu borada mutaxassislarining fikrlari turlichadir. Darhaqiqat, frazeologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri frazeologiya sohasidagi nazariy va amaliy fikrlarni umumlashtirib, to'g'ri ilmiytadqiqotni amalga oshirishdan iboratdir. Tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar V. Flaysher, V. V. Vinogradov, E. D. Polivanov, B. A. Larin, A. V. Kunin, N. M. Shanskiy, L. P. Smit va Sh. Ballilar ham frazeologiya va uning masalalari borasida alohida tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirishgan va mazkur sohaning taraqqiyotida ularning hizmatlari nihoyatda beqiyos bo'lgan.

Frazeologiya fanining tarix, adabiyotshunoslik, lisoniy mamlakatshunoslik va tilshunoslikning bir qator boshqa fanlari leksikologiya, semantika, grammatika, fonetika, stilistika, til tarixi, etimologiya, matn tilshunosligi va umumiy tilshunoslik kabi fanlar bilan bog'liqlik jihatlari ham mavjud. Frazeologiya leksemalardan tashkil topadi, leksemalar esa leksikologiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi. Frazeologiya komponentlarining tabiatini hamda ularning lisoniy darajasini leksikologiyaning manbalariga tayanib aniqlash mumkin.

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlagach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan. Masalan, M. D. Stepanova hamda I.I.Chernishyovalar frazeologizmlarning strukturaviy hamda semantik jihatdan tasniflagan. Teo Shippan ham frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko'rsatgan, ya'ni frazeologik butunlik va turg'un birikmalar. Yana bir tilshunos olim U. Fiks esa, frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda, fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki mos kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlaydi. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarni o'rganishga urinishgan. Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish obyektiga ega. Frazeologiyaning o'rganish obyekti o'z navbatida shunday murakkab va o'ziga xoski, uni o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi. Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan. Avvalombor, muhokamada tasniflash masalasi turadi. Frazeologizmlarda so'z yasalishidagidek struktur tiplari va yasalish elementlari (affikslar) ning alohida sistemasi mavjud emas. Mavzu so'z gruppalari va gaplar haqida ketganligi tufayli so'zlar uchun qo'llanila oladigan tasniflash kriteriyalari frazeologizmlarda to'liq ko'chirilmaydi. Bu erda qandaydir tur klassifikatsiyasi haqida gap ketayotgani yo'q, balki kamdan-kam uchraydigan hodisalar, ya'ni frazeologizmlarning funksiyasi va mazmun-

mohiyatidagi nuqtai- nazar, qarashlar, ularning turg'unligi va boshqa til birliklari bilan o'zgaruvchanlik aloqalarini ko'rib chiqish haqida ketmoqda.

Frazeologizmlar haqli ravishda lug'at boyligining birliklari sifatida tadqiq qilinishi va xuddi so'zlar kabi tasvirlanishi lozim. Bu misol uchun frazeologizmlar va alohida so'zlar uchun asosiy umumiy tushuncha sifatida leksema terminining qo'llanilishida o'z ifodasini topadi. Yaxlit holda keltirilgan frazeologiya xuddi sintaxis va morfologiya kabi chambarchas bog'liq yo'nalish sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. N. Teliya ham muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko'rinishini leksikologiya bilan yonma- yon mustaqil bo'lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo'limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so'zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb izoh berdi. Nemis frazeologiyasining birinchi mustaqil umumiy ifodasi avval ham aytib o'tilganidek, rus tilshunos olimi I. I. Chernyashevga taalluqlidir. U "frazeologik birliklar"ni (kamida bitta komponentning ma'nosi bilan) va frazeologik tipga xos bo'lmagan "turg'un so'z komponentlar"ini bir-biridan farqlab berdi. Xuddi shunday ona tilimizdagi frazeologik birliklar purma'noligi va aniq talqin etilishi bilan tilimiz boyligiga amin bo'lamiz.

Masalan:

Jemandem auf den Schlips treten. (Kimnidir galstugiga kirmoq).

Jemanden kränken/beleidigen- kimnidir dumini bosmoq, kimnidir qiyin vaziyatga solmoq, tanqid qilmoq, loy chaplamoq – orqasidan yomon gap-so'z aytmoq, tuhmat qilmoq (Setora, odamlarning orqasidan loy chaplamoq yaxshi emas, bilasankuSinonimi: mag'zava ag'darmoq, tosh otmoq.

Dumini bosmoq g'ashiga, asabiga tegmoq. Idorada, ish ustida, ish yuzasidan gapirayotirman. Du-mingizni bosganim yo'q. A. Qahhor, Sarob. ♦ Men bir-ikkitasining dumini bosdim shekilli. [S. Siyoyev](#), „Otliq ayol“.[Burger Harald. Idiomatik des Deutschen,1974, 4]



- Bei ihm musst du genau aufpassen, was du sagst, denn er fühlt sich immer gleich auf den Schlips getreten.
- Ich möchte dir nicht auf den Schlips treten, aber ich glaube, dass dein Verhalten sehr egoistisch und rücksichtslos ist.
- Sollte ich dir irgendwie auf den Schlips getreten haben, so tut es mir leid.
- Sie hat ihre Kritik sehr vorsichtig formuliert, damit sich niemand auf den Schlips getreten fühlt.

Siz u bilan gaplashayotganda ehtiyot bo‘lishingiz kerak, chunki u doimo oyoq barmoqlariga qadam qo‘ygandek his qiladi.

Men sizni xafa qilishni xohlamayman, lekin sizning xatti-harakatlaringiz juda xudbin va beparvo ekanligiga ishonaman.

Agar oyog‘ingga biron-bir tarzda bosgan bo‘lsam, kechir.

Hech kim xafa bo‘lmasligi uchun u o‘z tanqidini juda ehtiyotkorlik bilan aytdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi manba nemis tilshunos olimi X. Burger ham frazeologizmlar masalalari bo‘yicha ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. U asosan idiomalarning stilistik aspektlariga va ularni tarjima qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. U frazeologizmlarning bir guruhi sifatida idiomalarni sharhlab o‘tgan. X. Burgerning fikricha, birikmaning umumiy ma‘nosi qoidadan mustasno tarzda talqin qilinadi. Bunda ko‘rsatilgan ko‘chma ma‘noli so‘z birikmalari yoki ularning umumiy ma‘nolari hech qanday holatda komponentlarning erkin ma‘nosidan tushunilmaydi.

Ma‘lumki, frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topadi. Uning komponentlari orasida o‘zaro sintaktik va semantik aloqa mavjud bo‘ladi. FB komponentlarining semantik mustaqil bo‘lgandagi farqlari avvaldan mavjud bo‘lganlaridan frazeologizmlarning yasashida ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, leksik komponent o‘zgarish tarkibi bir frazeologizmning belgisi ekanligini keltirib chiqaradi. FBning tarkibiy qismlari sifatida so‘zlar leksik- semantik paradigmadan kelib chiqadi va leksik- semantik sistemaning birligi sifatida so‘zdan farq qiladigan struktur funksiyaga ega bo‘ladi. Bu masalada A. I. Malotkov ko‘proq shug‘ullangan. Frazeologizm u uchun na yolg‘iz bir so‘z bilan, na so‘z gruppallari bilan o‘xshash, balki alohida leksik ma‘noga, ko‘plab komponentlar strukturalariga va o‘ziga xos grammatik kategoriyalarga ega bo‘lgan birlikdir. Frazeologizmlarning komponentlari bo‘yicha dastlab ba‘zi lug‘atlar va maxsus frazeologik materiallar jamlanmasi asosida ikki yoki undan ortiq tillarda tadqiqotlar olib borildi.

XULOSA

Nemis tilshunos olimi X. Burger ham frazeologizmlar masalalari bo‘yicha ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. U asosan idiomalarning stilistik aspektlariga va

ularni tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U frazeologizmlarning bir guruhi sifatida idiomalarni sharhlab o'tgan. X. Burgerning fikricha, birikmaning umumiy ma'nosi qoidadan mustasno tarzda talqin qilinadi. Bunda ko'rsatilgan ko'chma ma'noli so'z birikmalari yoki ularning umumiy ma'nolari hech qanday holatda komponentlarning erkin ma'nosidan tushunilmaydi.

Har bir frazeologizm xalq donishmandligining hukmi, ko'p yillik hayotiy tajribalarining umumlashma xulosalaridir. Ularning tilda paydo bo'lishi ularni yaratgan ijod qilgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. "Ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan birga yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketavermaydi, faqat jamiyatdagi ko'chilikning orzu-umidini, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommalashadi, avloddan-avlodga o'tadi, asrlar osha yashaydi"[Berdiyrov N., Rasulov R. 1984: 5] Xalqimiz shevalari betakror va purma'no so'z va iboralarga boy. Ular tilimizning tarixini o'rganish, taraqqiyot bosqichlarini belgilab berishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ona tilimiz va nemis tilining shevalari iboralarga boy, ularning til va madaniyat, muloqot va nutq jarayonidagi o'rni va ahamiyati katta. Ularni shevalar kesimida, adabiy til tizimida tutgan o'rni, ahamiyati, vazifasi jihatidan baholash uchun ma'no tarkibi, leksik-semantik munosabatlarini tadqiq qilish, leksikografik tavsiflarini mukammallashtirish, shevalarning iboralari lug'atini yaratish muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Berdiyrov N., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. 2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 291 б. 3. Ройзензон Л.И. Русская фразеология. – Самарканд, 1977. – 116 с.
2. Burger Harald. Idiomatik des Deutschen. Frankfurt am Main, Tübingen, Max Niemeyer Verlag, 1973
4. Furkat Raxmatov (2021). ПЕДАГОГИКАДА МАНИҚ ИЛМИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(4), 39-50.
5. Dilobar Abduxalilova, & Furkat Raxmatov (2021). WORTPAAREN IN DEUTSCHER UND USBEKISCHER SPRACHE UND IHR AUSDRUCK IN DER USBEKISCHEN SPRACHE. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 162-169.
6. Deutschlernendeblog.de